

**OILA PSIXOLOGIYASI: ER-XOTIN BAXTLI BO'LISH SIRI**

*Namangan viloyati Kosonsoy tumani Maktabgacha va mактаб та'лими  
bo'limiga qarashli 18-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi  
Xalilova Nozima Sobirjonovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada er-xotin munosabatlari bir tekis munosabatlar emas. Yillar davomida bu munosabatlar ko'p marotaba sinaladi, dars ketadi, hatto sinishi ham mumkin. Oilaviy baht boqiy bo'lishi mumkinligi yoritiladi.

**Kalit so`zlar:** oila, er-xotin, gender tenglik, turmush, baht, qaynona, shukronalik, krizis

Hozirgi kunda yosh kelin-kuyovlarga qilinayotgan sarpolarni ko'rib, ko'pchilik oilaviy baht uchun taxt kerak deb o'ylashini tushunish qiyin emas. Yosh er-xotinni boshlang'ich oilaviy hayotida imkon qadar ko'proq buyumlar bilan ta'minlab, ularning turmushidagi barcha moddiy ehtiyojlarini oldindan qoplab qo'ysak, er-xotin bekamuko'st yashab bahtiyor turmush kechiradilar, deb hato o'ylaymiz. Keyin esa qancha sarpo qilinishidan qat'iy nazar ajralish, hafachilik va oila barbod bo'lishini ko'ramiz. Mebel qancha qimmatlashmasin, sarpo kiyimlari qanchalik ko'paymasin, oilani saqlab qolish imkoniyati unga bog'liq emasligini tushunamiz.

Oilaviy baht-bu avallo erkak va ayol o'rtaсидаги munosabatlar natijasidir. Unga katta oila, sarpolar va hatto yangi mashina ham ijobji ta'sir ko'rsata olmaydi.

Er-xotin munosabatlarining yaxshilanishi ham, yomonlashi ham ularning bir-biriga bo'lган munosabatiga bog'liq. Bu ehtiros tufayli jo'sh urayotgan jinsiy munosabatlar emas, ota-onasi qilgan sarpoldan kelib chiqadigan moliyaviy munosabatlar ham emas, qaynona xizmatini qilish kerakligini ta'kidlovchi ijtimoiy munosabatlar ham emas. Bahtli hayot uchun kerak bo'lган er-xotin orasidagi eng muhim munosabat - bu bir-biriga minnatdor bo'lish munosabatidir.

Erkak ayoli unga chiroyli nonushta tayyorlagani uchun ichida bo'lsa ham minnatdor bo'lishni bilishi kerak, chunki ayoli uning uchun harakat qildi, uning ko'nglini olishni istadi. Ya'nii ayoli aynan u uchun tinmayotganini tushunib qadrlashni bilishi kerak. Hamma shundayku, demay, men uchun faqat shu ayol shunday deya o'zini xursand qila olishi kerak. Xotin bo'lgandan keyin qiladida, demay, berilayotgan e'tibor uchun avallo taqdiridan, keyin esa ayolidan minnatdor bo'lishni bilishi kerak.

Ayol ham eriga minnatdor bo'lishni o'rganishi lozim. Bozorlik qilib kelsa, uning uchun, bolalari uchun harakat qilayotganini tushunishi kerak. Tunda unga yoqimli harakat qilayotganini sezgan ayol ichida bo'lsa ham eriga minnatdor bo'lishi kerak. Chiroylik kiyim yoki sovg'a so'rab olib, eriga bor xursandchiligin ko'rsata bilishi kerak.

Ayolmi, erkakmi o'z turmush o'rtog'idan olayotgan barcha munosabatni norma singari qabul qilishi noto'g'ri. Oila degan kemani cho'kib ketmasligi uchun ikkovi harakat qilayotgan bo'lsa, demak ular bir-biri uchun harakat qilmoqda. Shuni ikkovi ham anglashi lozim. Minnatdorchilik insonni qanoatlantiradi.

Psixologiyaning qaysi rukuniga yuzlanmang, bahtli munosabatlarning negizida minnatdorchilik hissi yotadi. Dinimizda buni shkuronalik deb ataymiz.

Muhimi, yaxhsilikni kora bilish. Misol uchun eri boshqa ayol ko'nglidan chiqib xotiniga qo'pollik qilayotganda minnatdor bo'lish aslo kerak emas. Yoki bo'lmasa kuni bilan ijtimoiy tarqmolardan boshini ko'tarmay, ko'zguni oldidan ketmaydigan ayolga ham minnatdorchilik shart emas.

Lekin ozmi-ko'pmi oilam, uyim-joyim, bolam-chaqam deydigan erkak va ayol o'zaro bir-birlariga minnatdorchilik hissini ko'rsatishni o'rganishlari lozim. Ko'chadan non olib kelsa ham, o'pib qo'ying. Ertasiga muzqaymoq keladi. Nonushtaga erta turib quymoq tayyorladimi, o'pib qoying, ertasi kuni somsa ko'rasisiz.

Biz esa ko'pincha sheriklarimizning kamchiliklarini yaqqol sezamiz, ularga urg'u beramiz, to'g'irlashga harakat qilamiz yoki shu deb ranjib yuramiz. Kunda qilinadigan yaxshi amallariga esa oddiy holdek qaraymiz.

Sinab ko'ring, bugun turmush o'rtog'ingizga har kuni qilib yuradigan biron ishi uchun undan minnatdor ekanligingizni ko'rsating. U ish mayda bo'lsa ham minnatdor ekanligingizni sezsin. O'pib qo'ying, minnatdorchilik so'zlarini aytинг, xursanchililingizni namoyon qiling, qilgan oddiy ishini sovg'a singari qabul qiling. Natijasi sizni juda tez xursand qilishiga aminmiz.

Oilani ko'pincha qayiq bilan solishtirishadi. Qayiq kabi oila ham suv yoqalab yoki suv oqimiga qarshi suzib yuradi. Oilani ham bo'ronlar va yomg'irlar qiynab turadi. Ushbu davr oila krizis davri deb ataladi. Krizis davri hamma oilalarda har xil kechib, krizisdan oilani saqlab oilani buzilib ketishiga yo'l qo'ymay, yangi bosqichga o'tish erga va xotinga bog'liq.

Ko'pincha birinchi krizis turmushning birinchi yilidayoq yuzaga keladi. Mazkur muammo to'ydan oldingi romantika o'tib turmush qiyinchiliklari bilan kurashayotgan er-xotinning bir birlarini tushunmasligidan, kutgan orzulari amalga oshmaganligidan paydo bo'ladi.

Ikkinci krizis birinchi bola tug'ilganida sodir bo'ladi. Bunda oilada yangi inson va uning ehtiyoji ham bor ekanligi er-xotin hayotida katta o'zgarishlar tug'dirib, boshidan yangicha munosabat qurishni talab etadi.

Albatta hayot davomida oilalar turli tashqi va ichki ta'sirlar natijasida krizisga uchraydilar, bundan hech kim mustasno emas. Lekin krizisdan yengil chiqish, uni tezroq yo'q qilish, krizisdan keyin yanada baxtliroq yashay olish hammaning ham qo'lidan kelmaydi.